ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA AXBOROT MADANIYATINI NAMOYON BO‘LISH MEZONLARI

Karimov Komiljon Abduraximovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc) dotsent
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi ilmiy-tadqiqot” bo’limi boshlig’i

Abstract: This article analyzes the effectiveness of information culture criteria for the head of a general education institution.

Keywords: head of an educational institution, information culture criteria, professional performance, subject of management action, internal school management, information support system, school management effectiveness.

Annotatsiya: Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasasini boshqarish jarayonida rahbarda axborot madaniyatining namoyon bo‘lish mezonlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: ta’lim muassasasi rahbari, axborot madaniyati mezonlari, kasbiy faoliyat natijalari, boshqaruv faoliyati sub’ekti, maktab ichki boshqaruvi, axborot ta’minoti tizimi, maktab boshqaruvi samaradorligi.

“Ta’lim muassasasi rahbarining axborot madaniyati” tushunchasi hali umumqabul qilingan ilmiy tushunchaga aylanmagani hamda boshqaruv faoliyati amaliyotida keng qo‘llanilmayotganligi bois, axborot madaniyatini mezonlarini topish o‘z mohiyatiga ko‘ra ushbu tushunchani qo‘llash ma’nosiga tengdir.

Biz qidirilayotgan mezonlar yordamida maktab rahbarlarining axborot madaniyati rivojlanishining optimal darajasiga mos keluvchi imkoniyatlarni topishimiz mumkin, deb faraz qilmoqdamiz.

Bundan tashqari, axborot madaniyatining aniq mezonlari ham rahbar-amaliyotchilar, ham tadqiqotchilar uchun ushbu fenomen haqida oddiy va barcha uchun bir xil tushunarli tilda gapirishga imkon beradi.

Axborot madaniyatining namoyon bo‘lishini biz quyidagi jihatlar bo‘yicha o‘rganish zarur deb hisoblaymiz:

- maktab rahbari kasbiy faoliyati natijalarida;
- ko‘rsatilayotgan faoliyat jarayonida;
- boshqaruv faoliyati sub’ekti sifatidagi rahbar shaxsiyatida.

Kasbiy faoliyat natijalari to‘g‘risida gapirganda, biz axborot madaniyati faoliyatining yakuniy maqsadini qo‘lga kiritish usullari samaradorligi sifatida namoyon bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Yuqorida ta’kidlanganidek, biz shunday yondashuv tarafdorimizki, unga muvofiq boshqaruv faoliyati mahsuldorligi maktab taraqqiyotining shakllangan, asoslangan, aniq bajarilishi va joriy qilinishi mumkin bo‘lgan strategiya mavjudligini ko‘zda tutadi; bular ma’naviy, axloqiy, xayrihohlik muhiti hamda maktabning maqbul psixologik jamoasi; o‘quvchilar shaxsiyatini erkin ijodiy rivojlantirish borasida maktab faoliyatidagi demokratik hamda insoniy an’analar va tendensiyalar namoyon bo‘lishining yuksak darajasi; direktorning obro‘si, u tomonidan o‘z mehnati hamda jamoa mehnatini mohirona tashkil etish.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Shunday qilib, biz aniqlagan axborot madaniyatining birinchi mezoni kasbiy faoliyatning mahsuldorligidir.

Rahbar axborot madaniyati mezonlarini aniqlash nuqtai nazaridan boshqaruv faoliyati jarayonini tahlil qilgan holda biz o‘z oldimizda turgan tadqiqotchilik vazifasini hal qilish uchun eng istiqbolli bo‘lgan ikki yondashuvni ajratib oldik.

Birinchi yondashuv boshqaruv funksiyasi kontekstidagi boshqaruv faoliyatining tahliliga asoslangan. Bu nuqtai nazardan axborot madaniyatining maqsadni belgilashda, maktab ichki boshqaruvini axborot ta’minlash tizimini yaratishda, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, rejalashtirish, tashkilotchilik, nazorat, tahlilda namoyon bo‘lishi to‘g‘risida gapirish mumkin. Biz maktab ichki boshqaruvi axborot ta’minoti tizimini yaratish jarayonidagi axborot madaniyatini namoyon bo‘lishini tadqiq qilish ustuvorroq deb o‘ylaymiz.

Bunday samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Maktab boshqaruvi samaradorligi va axborot ta’minoti ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rganishning taxminiy usullari
1. Axborot tizimi tuzilmasining maktab boshqaruvi tuzilmasiga o‘xshashlik darajasi	tizimning ekspert tahlili
2. Axborot tizimining mukammalligi (unda tuzilmaning barcha qismlari mavjudligi)	axborot tizimining ekspert tahlili
3. Axborot tizimining yaxlitligi (maqsadlar, vazifalar, ularga erishish rejalari, zahira ta’minoti, axborot tizimi amal qilishiga rahbarlik, kutilayotgan natijalar muvofiqlashtirilganligi)	axborot tizimidan foydalanishni tahlil qilish
4. Maktab boshqaruvi axborot tizimining oqilonaligi va bajarilishi imkoniyati	maktab boshqaruvi tizimi tuzilmasi bilan qiyoslash
5. Nazorat qilinish, har xil uzilishlarni his etish	axborot oqimlarini takrorlash
6. Maktab boshqaruvi sub’ektlarining axborot ehtiyojlari qondirilganligi	boshqaruv sub’ektlarini so‘rovdan o‘tkazish
7. Axborot ta’minotining xilma-xilligi (axborot byulleteni, gazeta, tahliliy materiallar, kompyuter aloqasi, Internet...)	tahliliy materiallar
8. Boshqaruv qarorlarining samaradorligi	ekspert bahosi
9. Tahlim muhiti imkoniyatlarini hamda boshqa tizimlar bilan aloqani kengaytirish	axborot texnologiyasini joriy etish

Axborot ta’minoti tizimini yaratish borasidagi boshqaruv faoliyatini ustuvor yo‘nalish sifatida tanlab olish quyidagi fikrlar bilan izohlanadi. Boshqaruv tizimida boshqaruv ob’ektini holati, uning rivojlanish tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni puxta tahlil qilish asosida ob’ektning joriy va kelgusidagi holati axborot modeli yaratiladi hamda uni amalga oshirish sharoitlari va bosqichlari asoslanadi, ya’ni ob’ektni qayta shakllantirish bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

Qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish pedagoglar jamoasiga, o‘quvchilarga, ota-onalarga qabul qilingan qarorlarni bajarilishi ustidan nazorat asosida ta’sir ko‘rsatish usullari tizimi orqali

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

tashkil etiladi (qayta axborot). Rahbar qo‘lidagi axborot qanchalik aniq va ob’ektiv bo‘lsa, boshqaruv ob’ektining maqsadlarini, joriy holatini va o‘zaro aloqasini aks ettirsa, vazifalar shunchalik asoslangan va ularga erishish uchun yo‘naltirilgan chora-tadbirlar shunchalik aniqroq bo‘ladi. Rahbar o‘z ishida ob’ekt holati to‘g‘risidagi axborotga tayanishi hamda o‘z faoliyati natijasida boshqaruv ob’ektini joriy holatdan o‘zi istagan holatga o‘tkazish maqsadida yangi boshqaruv axborotini tashkil etishi bois, axborotni boshqaruv mehnatining predmeti va mahsuli deb hisoblash mumkin.

Boshqaruv jarayonining yakuniy mahsuli ham axborot xususiyatiga ega. Maktab boshqaruvi ost tizimlaridagi funksional bo‘linmalarda odatda yakuniy mahsulot ilmiy-uslubiy, tadqiqot ishlanmalari, psixologo-pedagogik asoslar – maktabni rivojlantirish dasturi, ta’lim dasturi, o‘quv rejasi, o‘quvchilarga hamrohlik qilish xizmati konsepsiyasi va hokazolar shakliga ega.

Axborot tizimini shakllantirish mazmun jihatining markazi bu axborotga bo‘lgan haqiqiy shakllangan ehtiyojni o‘rganish hamda ularni imkon qadar to‘laroq qondirishdir.

Hozirgi vaqtda bu ish o‘ta muhim ahamiyatga ega, chunki axborot iste’molchilari tarkibiga ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari faolroq kelib qo‘shilmoqda.

Mulohazalardan so‘ng, axborot madaniyatini rivojlantirishning asosiy mezonlaridan biri sifatida biz rahbarning axborot ta’minoti tizimi tuzilmasini maktab ichki boshqaruvi tizimi tuzilmasiga belgilay olishdagi shakllangan malakasini ajratib ko‘rsatdik.

Endi axborot madaniyati belgilarini aniqlashning **ikkinchi yondashuviga** murojaat qilamiz. Bunday yondashuvning asosi – turli xil mazmunga ega bo‘lgan va turli bosqichdagi boshqaruv munosabatlaridagi boshqaruv faoliyatini, ularning tuzilishi va muvofiqlashganligini tahlil qilishdir.

Ushbu yondashuv yo‘nalishida bizni eng avvalo, rahbarning: ta’lim jarayoni asosiy sub’ektlari sifatidagi o‘quvchilarga va pedagoglarga, boshqaruv faoliyatiga hamda ushbu faoliyatning sub’ekti sifatidagi o‘z-o‘ziga, rahbar ishlatadigan axborotga munosabati qiziqtiradi.

Rivojlangan axborot madaniyatiga ega rahbarda bu munosabatlar qanday namoyon bo‘lishiga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz. Boshqa kishilar (o‘quvchilar, pedagoglar) ga yoki o‘z-o‘ziga munosabatda esa, rivojlangan axborot madaniyatiga ega rahbarda bunday munosabatlar manipulyatsiya yondashuvi deb atalmish yondashuvdan farqli o‘laroq sheriklik yondashuviga ko‘proq mos tushadi.

Bu xususan, shunda namoyon bo‘ladiki, maktab rahbari muayyan shaxs (hamkasb-pedagog, o‘quvchi, o‘quvchining ota-onasi) bilan muloqot vaziyatlarida unga hatto vazifa o‘ta muhim va “strategik” bo‘lganda ham, ushbu amaliy boshqaruv yoki pedagogik vazifani hal qilish vositasi sifatida qaramaydi.

Muloqotda sheriklik yondashuvini qo‘llaydigan rahbar uchun har qanday kishi bu yaxlit, ko‘p bosqichli, uzluksiz rivojlanuvchi mavjudotdir. Va bizning nuqtai nazarimizda muloqotda sheriklik yondashuvini qo‘llash axborot madaniyatining uchinchi mezonidir. Biroq ushbu mezonni bevosita kuzatish imkoni bo‘lmagani uchun rahbar muloqotida sheriklik yondashuvini ko‘ra olishga yordam beruvchi shunday belgilarni qidirib topish zarur.

Ilgari biz axborot madaniyati asosida rahbarning rivojlangan kasbiy ongi turishini va uning asosiy komponentlaridan biri boshqaruv faoliyati va ta’lim jarayonining konseptual modeli ekanligini ko‘rib o‘tgan edik.

Bizning fikrimizcha, agar ushbu konseptual modellar rahbarning ta’lim jarayoni har bir ishtirokchisiga eng avvalo, yaxlit shaxs sifatida idrok etishini aks ettira olgandagina boshqaruv madaniyati to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Biz kasbiy ahamiyatga ega qadriyatlar va kasbiy o‘z-o‘zini anglash jihatlarini axborot madaniyatining ayrim belgilari sifatida ajratib ko‘rsatish zarur deb hisoblamaymiz. Chunki ushbu komponentlar tegishli konseptual modellarda muqarrar ta’sir ko‘rsatadi va aks etadi.

Shunday qilib, biz axborot madaniyatining uchinchi mezoni rahbarning insoniy qadriyatli maqsadlarini aks ettiruvchi hamda u tomonidan ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisini yaxlit shaxs sifatida idrok etishini ko‘rsatadigan boshqaruv faoliyati va ta’lim jarayonining konseptual modellaridir.

Maktab rahbari axborot madaniyatining uchinchi mezoni yanada aniqroq belgilari sifatida biz tegishli konseptual modellar xususiyatini, eng avvalo, ularning yaxlitligini, insoniy qadriyatlarga zid kelmasligi va ularga yo‘naltirilganligida deb hisoblaymiz.

Yuqorida sanab o‘tilgan mezonlardan tashqari biz axborot madaniyatining yana bir mezonini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Unda bizning fikrimizcha, rahbarning ham shaxsiy sifatlari, ham uning ijodiy faollik namoyon qilish ham boshqaruv bilimlari jamlanadi.

Quyidagi asoslar bo‘yicha rahbarlik usulini turlarga ajratish eng mashhur yondashuvlardan hisoblanadi:

- maqsadli belgiga ko‘ra (rahbarlik faoliyati maqsadi xususiyatiga ko‘ra); ishbilarmonlik va byurokratlik usuli;
- muomala xususiyatiga ko‘ra;
- guruh yoki shaxsga ta’sir ko‘rsatishning rasmiy va norasmiy usullarini qo‘llash darajasiga ko‘ra: ko‘rsatma berish (“rasmiyatchilik”), o‘rtoqlik (“obro‘li”), beparvolik (“o‘z holicha”) usullari;
- ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishda yakkahokimlik yoki guruhli usullarning ustuvorligi, yakkahokimlik yoki jamoaviylik namoyon bo‘lish darajasiga ko‘ra: avtokratik (avtoritar), demokratik va nofaol (liberal).

Rahbarga “vaziyatga qarab” boshqarish usulini beradigan afzalliklar nazariy jihatdan asoslangan. Unga muvofiq bir marta va doimiy ravishda qo‘llanish uchun yaratib qo‘yilgan samarali boshqaruv usuli mavjud emas. Boshqaruvning eng yaxshi usulini yuzaga kelgan boshqaruv vaziyatidan kelib chiqqan holda tanlash zarur.

Boshqaruv vaziyati deganda, biz muayyan boshqaruv sohasidagi, muayyan vaqtda vujudga kelgan hamda rahbarning tegishli harakatlarini taqozo etuvchi barcha (ichki va tashqi, ob’ektiv va sub’ektiv) sharoitlar yig‘indisini nazarda tutamiz.

Odatda, boshqaruv vaziyati boshqaruv vazifasi bilan bir qatorda ishlarning qoniqarsiz holati, hal qilinmagan masalalar va ularni hal qilish sharoitlarini ham o‘z ichiga oladi.

Muayyan boshqaruv vaziyatlarida maktablar rahbarlari xatti-harakatini kuzatish bizga aynan “vaziyatga ko‘ra” boshqaruv usuli, axborot madaniyatining belgisi ekanligiga ishonch hosil qilishimizga imkon berdi. Maktab rahbarining ushbu usulga egaligi asosida uch o‘lchamli boshqaruv tafakkuri qaror topadi. Uch o‘lchamli boshqaruv tafakuri rahbar har qanday boshqaruv vaziyatida ham maqsadlarga erishish, ham muayyan kishilarga yuzaga kelgan sharoitdagi faoliyat samaradorligini nazarda tutgan holda e’tibor qaratishini ko‘zda tutadi.

Shunday qilib, biz aniq boshqaruv vaziyatiga boshqaruv usulining mos kelishini yoki boshqacha so‘zlar bilan aytganda, rahbarning “vaziyatga ko‘ra” boshqaruv usulini egallaganligini axborot madaniyatining to‘rtinchi mezoni sifatida shakllantiramiz. Ushbu usulni egallaganlikning ayrim alomatlari sifatida biz maktab rahbarlarining har bir aniq boshqaruv vaziyatidagi uch o‘lchamli boshqaruv tafakkuri namoyon bo‘lishi deb hisoblaymiz.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Sanab o‘tilgan mezonlardan tashqari, rahbarning shaxsiyati bilan bog‘liq axborot madaniyatining namoyon bo‘lishini ham muhim deb hisoblaymiz. Biz bu yerda, eng avvalo, insonning umumiy madaniyatini, va xususan, xatti-harakat madaniyatini nazarda tutamiz.

Yuksak axborot madaniyatiga ega rahbar uchun kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish munosibdir. Bu har qanday boshqaruv vaziyatida ish muloqoti me’yorlari va qoidalariga, shu jumladan, xatti-harakat hamda kiyim-kechak va boshqalarga rioya qilgan holda kishilarga e’tibor bilan, hurmat bilan munosabatda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 56 b.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni.// O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami. –T., 2017. –B.39.

3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015.

4. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015.

5. Boboev X. va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. -T.:Yangi asr avlodi, 2001. –B. 3.